



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi
IMOM BUXORIY XALQARO ILMII-TADQIQOT MARKAZI



Imom Tirmiziy

(824-892)




“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning beba ho mero si, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”.

Shavkat MIRZIYOYEV

ABU ISO TERMIZIY – SO‘ZI HUJJAT ALLOMA

To‘liq ismi – Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhok Sulmiy Bug‘iy Termiziy bo‘lib, 824-yili Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida tavallud topgan. Kunyasi Abu Iso, ismi Muhammad bo‘lgan.

Muhammad Termiziy dastlabki ta’limni o‘z ona shahrida olgan. Bolalik chog‘laridanoq ilmga chanqoq





bo‘lib, ayniqsa, hadis o‘rganishga ishtiyoqi baland bo‘lgan. U hadis ilmining oltin davrida yashab, butun hayotini ilm olish va unga amal qilish bilan o‘tkazgan.

ILM TALABIDAGI SAFARI

Yoshligidan ilmgaga chanqoq bo‘lgan Muhammad Termiz, Samarqand, Buxoro, Marv va boshqa yirik shaharlardagi eng mashhur faqih va muhaddislardan saboq olgan. Yigirma olti yoshida ilm talabida Nishapur, Ray, Xuroson, Sheroz, Bag‘dod, Kufa va Basraga hamda Makkayi mukarrama va Madinayı munavvaraga safar qilgan. O‘scha davrdagi yirik ilmiy markazlarning hadis ulamolari va ulug‘ ustozlaridan



tahsil olgan.

Alloma safar davomida uchraydigan qiyinchi-lik va xavf-xatarlarga qaramay, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hadislarini to‘plashdek oliy maqsadidan og‘ishmagan. Imom Termiziy 15 yilga yaqin umrini safarda o‘tkazgan.

Zamondoshlari tomonidan “kuchli xotira sohibi” deb tan olingan. Uning zehni o‘tkirligi xususida tarixiy manbalarda ko‘plab misollar, rivoyatlar keltirilgan. Jumladan, arab tarixchisi Shamsiddin Zahabiyning “Tazkiratul huffoz” (“Juda ko‘p hadislarni yod bilgan muhaddislar haqida eslatma”) nomli asarida Imom Termiziydan quyidagi hikoya bayon qilinadi:

“Makkaga ketayotgan edim, bir shayxning rivoyat

qilgan hadislaridan ikki jild yozib oldim. So‘ng uni topib, bu hadislarning to‘g‘riligini shaxsan o‘zidan eshitib, tekshirib olishga ijozat so‘radim. Hadislar yo-zilgan ikki jild yonimda, deb o‘ylagan edim. Shunday qilib, undan ijozat so‘radim, u qabul qildi. Men adashib, o‘zim bilan hech narsa yozilmagan oppoq ikki jild kitob olib kelibman! Shayx o‘z lafzi bilan rivoyat qilingan hadislarni o‘qiy boshladi. To‘satdan qo‘limdagи oppoq qog‘ozga ko‘zi tushib qolib: “Bunday qilgani mendan uyalmaysanmi?!” dedi. Men unga bu xijolatli vaziyat adashish oqibati ekanini gapirib berdim va: “Aytayotgan hadislaringizni yodlab olayapman”, dedim. U: “O‘qib ber-chi!” dedi. Men undan eshitgan hadislarni o‘qib berdim. U ishonmay: “Huzurimga kelishdan oldin (avval yozib olganlaringdan) yodlab olgansan!” dedi. Men: “Ulardan boshqa hadislarni aytинг”, dedim. U menga qirqta hadis aytdi-da: “Qani, qaytadan aytib ber-chi!” dedi. Men ularni biror harfida xato qilmay, qaytadan aytib berdim”.

Abu Iso Muhammad Termiziy Imom Dorimiyy, Imom Buxoriyy, Imom Muslim, Imom Nasoiy va boshqa yetuk muhaddis va faqihlar bilan zamondosh bo‘lgan.

Termiziy xorijiy safarlari chog‘ida faqat hadis to‘plash bilan cheklanmasdan ular asosida asarlar ham yozgan. Doim olim va fozillar bilan ilmiy munozaralarda qatnashgan, ko‘plab shogirdlarga ustozlik qilgan. Ayniqsa, mashhur muhaddis Imom



Buxoriy bilan ko‘plab ilmiy suhbatlar o‘tkazib, bundan juda katta foyda olganini o‘zining “Al-Ilal” kitobida yozib qoldirgan. Bu kitobda roviylar darajasini belgilash uchun muhim ma’lumotlar to‘plangan.

Imom Buxoriy shogirdi Imom Termiziya: “Siz mendan bahramand bo‘lganингиздан ко‘ра, мен sizdan ko‘проq bahramand bo‘ldim”, deb munosib baho bergen.

Alloma 892-yili Bug‘ qishlog‘ida vafot etgan.



ILMIY MEROSSI

Abu Iso Termiziy hadis, tarix, fiqh kabi fanlarga oid noyob asarlarni yozib qoldirgan. Uning “Sunani Termiziy” (“Ishonarli to‘plam”), “Shamoyili Muhammadiyya” (“Muhammad sollallohu alayhi vasallamning surat va siyratlari”) kabi o‘nga yaqin asarlari bizgacha yetib kelgan.

Mashhur tarixchi Hoji Xalifa aytganidek: “Sunani Termiziy” “Sihohu sitta” (“Olti sahih kitob”) sirasiga kirib, “Sahihul Buxoriy” va “Sahihul Muslim”dan keyingisi hisoblanadi”.

Taniqli olim Toshko‘prizoda Imom Termiziy





faoliyatiga yuqori baho berib bunday yozadi: “Imom Termiziyning hadis ilmi sohasiga oid ko‘plab asarlari bor. Uning “Sunani” ushbu kitoblarning eng yaxshisi va g‘oyat foydalisidir. Bu kitobda “sahih”, “hasan”, “zaif” darajasidagi turli hadislар bayon etilgan”.

Hadis imomlaridan biri Abdurahmon ibn Muhammad Idrisiy: “Termiziy hadis ilmida ishonchli, so‘zi hujjat bo‘lgan imomlardan biridir. Abu Iso Termiziy birinchi bo‘lib hadislarni sahих, hasan, zaif kabi toifalarga ajratgan”, deb ta’kidlagan.

Shuni alohida qayd etish joizki, Imom Termiziy birinchi bo‘lib “Sunan” asari orqali hadis ilmiga “hasan” kategoriyasini kiritgan.

Ushbu asar olti ishonchli hadis to‘plami orasida





chiroyli tartibda yozilgani, o'rganilishi yengilligi va takrorlari kamligi bilan ajralib turadi.

Imom Termiziy "Sunan" kitobida keng musulmon ommasini turli chalg'ishlardan xalos etish maqsadida illatli (nuqsonli) hadislarni ham keltirgan. Shuning-dek, sahabalar, tobeinlar va roviylar darajalarini batafsil izohlab o'tgan.


Alloma mashhur muhaddis va faqihlar orasida "So'zi hujjat", "Xotirasi kuchli, ishonchli olim" deb e'tirof etilgan.

Qomusiy olim Muhammad Zakariyo aytadi: "Mening fikrimcha, olti sahih kitobni o'rganishda Termiziyning "Sunan"idan boshlash eng to'g'ri yo'ldir".

Abu Iso Termiziy aytadi: “Bu kitob (“Sunani Termiziy”)ni yozib, Hijoz, Iroq va Xuroson ulamolariga tutqazdim. U zotlar o‘qib ko‘rib, yozganlarimni ma’qullab, aytdiki: “Kimning uyida bu kitobdan bo‘lsa, (ya’ni uni olib, tokchaga qo‘yib qo‘ymasdan, balki o‘qib, mazmunini uqsa) o‘sha xonadonda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam gapirayotgandek bo‘ladilar”.

Unda boshqa hadis to‘plamlarida kam uchraydigan foydali jihatlar mavjuddir. Masalan, uni o‘qigan kishi sahih, hasan, zaif hadislarni ajratish ko‘nikmasini hosil qiladi. Shu bilan birga bu to‘plam fiqhiy uslubga ko‘ra boblarga ajratilgani o‘quvchi uchun ko‘p qulayliklar yaratadi.





Allomaning “Shamoyili Muhammadiyya” asari esa Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam siyratlari haqida yozilgan eng muhim manba bo‘lib, hozirgacha nufuzli islom oliy o‘quv yurtlarining ta’lim dasturidan joy olib kelmoqda.

Ushbu asarga Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning shamoyillari, fe'l-atvorlari, fazilatlari, odob-axloqlari, kundalik hayotlarini aks ettiruvchi to‘rt yuzga yaqin hadis kiritilgan. Kitob dunyoning aksar tillariga tarjima qilingan bo‘lib, unga juda ko‘plab sharhlar yozilgan.


IMOM TERMIZIY VA HOZIRGI ZAMON

Yurtimizda Imom Abu Iso Muhammad Termiziyning xotirasi va beqiyos ma'naviy merosiga e'tibor davlat darajasiga ko'tarilgan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan u zotning xoki poyi mangu qo'nim topgan Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi qadamjoda maqbara bino qilindi. Shuningdek, Termiz shahrida ulkan masjid, madrasa va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi barpo etilib, unda muhaddis alloma va boshqa ulamolarning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha ilmiy faoliyat boshlab yuborildi.

Allomaning asrlar davomida nafaqat olim-u fuzalolar, balki oddiy odamlar uchun dasturul amal bo'lib kelgan insof,adolat va insonparvarlikni targ'ib etuvchi merosi hozirgi murakkab davrimizning ko'plab muammolariga yechim topishda o'ziga xos asos bo'lib xizmat qilishi muqarrar.





ABU ISO TERMIZIY RIVOYAT QILGAN HADISI SHARIFLARDAN NAMUNALAR:

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar:
**“Odamlarga tashakkur bildirmagan kishi Allohga
ham shukr qilmaydi”.**

Nabiy sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Ko‘p
namoz o‘qish, mehr ko‘rsatish va tejamkor-
lik payg‘ambarlikning yigirma to‘rt bo‘lagidan
biridir”.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar:
**“Qiyomat kuni mo‘minning mezonida chiroqli
xulqdan og‘irroq narsa bo‘lmas. Alloh fahsh va
chirkin so‘z aytuvchini yomon ko‘radi”.**

Muhammad sollallohu alayhi vasallam dedi-

lar: “Yosh yigit keksa kishini yoshi ulug‘ligi uchun hurmat qilsa, Alloh taolo uni ham keksayganida hurmat qilinadigan insonlar qatoriga qo‘yadi”.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Kichiklarimizga rahm-shafqatda, kattalarimizga hurmat-izzatda bo‘lмаган kishi bizdan emasdир”.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Kim ilm talab qilish yo‘liga yursa, Alloh unga jannat yo‘lini oson qilib qo‘yadi. Albatta, farishtalar tolibi ilmnni rozi qilish uchun qanotlarini to‘sheydi. Darhaqiqat, olimning haqqiga osmonlar va yerdagi jonzotlar, hatto suvdagi baliqlar ham istig‘for aytadi”.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Olimning obiddan fazli xuddi oyning yulduzlaridan fazliga o‘xshaydi. Olimlar payg‘ambarlarining merosxo‘rlaridir. Payg‘ambarlar dinor ham, dirham ham meros qoldirmagan. Ular ilmn ni meros qoldirganlar. Kim o‘shani olsa, ulug‘ nasi-bani olibdi”.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Kimga ilm talab qilib turgan holida ajal yetsa,

u bilan payg‘ambarlarning o‘rtasidagi farq faqat payg‘ambarlik bo‘ladi”.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Kim ilmni ulamolar bilan mojaro qilish, esi pastlarga g‘olib kelib, o‘zini ko‘rsatish yoki u bilan odamlarni o‘ziga qaratish maqsadida o‘rgansa, Alloh uni do‘zaxga kiritadi”.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Sizlarning yaxshilaringiz xulqi go‘zal bo‘lganlarin-gizdir”.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Mo‘minlarning imon jihatidan komillari xulqi yaxshilaridir”.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Sizlarning yaxshilaringiz ayollariga xushmuromala bo‘lganlaringizdir”.





Imom Termiziy ziyoratgohi



IMOM BUXORIY
XALQARO ILMIY-
TADQIQOT MARKAZI

Nashr uchun mas'ul: **Nodir QOBILOV**
G'oya mualliflari: **Shahzod ISLOMOV, Shovosil ZIYODOV**
Mas'ul muharrir: **Otabek MUHAMMADIYEV**

Muharrir: **Anvar BOBOYEV**
Musahih: **Husan NISHONOV**
Dizayner: **Muhammadiqbol SHUKUROV**

© IBXITM - 2023

*O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning
2021-yil 19-avgustdagi 03-07/5077-raqamli xulosasi asosida tayyorlandi.*

